

## IXTISOSLASHGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA RADIOAKTIV NURLANISHLARNING TIRIK ORGANIZMLARGA TA’SIRI TO‘G‘RISIDA TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISH

*Yusupov Dilmurod Abdurashidovich, NamDPI, katta o‘qituvchi PhD  
Muxtoraliyeva Madinabonu Xayrullo qizi, NamDPI, 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqola, o‘quvchilarda radioaktiv nurlanishning tirik organizmlarga ta’siri haqidagi tasavvurlarni shakllantirish metodikasiga bag‘ishlangan. Tadqiqotda radioaktiv nurlanishning biologik ta’sirlarining ilmiy asoslari va uning ekologik xavflari ko‘rib chiqilgan. O‘quvchilarda bu masalalarga nisbatan chuqurroq tushuncha hosil qilish uchun metodik yondoshuvlar, pedagogik texnikalar va o‘qituvchilarning ta’lim jarayonidagi roli o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** radioaktiv nurlanish, tirik organizmlar, biologik ta’sir, ekologik xavflar, pedagogika, ilmiy ta’lim, metodika, o‘quvchilar.

**Аннотация:** Данная научная статья посвящена методике представлений студентов о действии радиоактивного излучения на живые организмы. В исследовании рассмотрены научные основы биологического действия радиоактивного излучения и условий окружающей среды. Методические подходы, педагогические приемы, роль учителя в образовательном процессе изучаются с целью углубления понимания студентами этих вопросов.

**Ключевые слова:** радиоактивное излучение, живые организмы, биологическое действие, экологические условия, педагогика, научное образование, методика, студенты.

**Abstract:** This scientific article is devoted to the method of forming students' ideas about the effect of radioactive radiation on living organisms. The research examines the scientific basis of the biological effects of radioactive radiation and its ecological risks. Methodical approaches, pedagogical techniques and the role of teachers in the educational process are studied in order to create a deeper understanding of these issues among students.

**Keywords:** radioactive radiation, living organisms, biological effect, environmental hazards, pedagogy, scientific education, methodology, students.

Bugungi kunda ilmiy va texnologik taraqqiyot natijasida radioaktiv nurlanishning ta’siri jamiyatning turli jabhalariga, shu jumladan, ekologiya va biologiyaga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Radioaktiv nurlanishning tirik organizmlarga, xususan, insonlar va boshqa tirik organizmlarga ta’siri jiddiy ekologik xavflarni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu muammo ekologik ta’limda, ayniqsa o‘quvchilarda radioaktiv nurlanishning biologik ta’sirlari haqida to‘g‘ri

tasavvurlarni shakllantirish zaruratini tug'diradi. Shu bois, ilmiy-tadqiqot ishida o'quvchilarda radioaktiv nurlanishning biologik ta'siri haqidagi tushunchalarni shakllantirish uchun metodik yondoshuvlar va pedagogik strategiyalar tahlil etiladi.

Tabiiy radioaktiv izotoplarning tarqalishi turli hududlarda hududning geografik joylashuviga bog'liq ravishda turlicha bo'ladi. Radioaktiv izotoplar kishilar organizmiga havo, suv, iste'mol mahsulotlari biologik zanjiri orqali o'tadi va kishilarning organlarini ichkaridan nurlantiradigan ichki nurlanish manbai bo'lib qoladi. Radionuklidlarning organizmda chiqarilishi, radionuklidlarning fizikaviy-kimyoviy xossalriga, yarim yemirilish davrlariga bog'liq bo'lib, to'liq chiqarilmasdan organizmdagi turli organlarda (suyakda, mushaklarda, o'pkada va boshqalarda) to'planadi. Kishilar organizmiga o'tgan radioaktiv izotoplarning xavfsiz deb belgilangan chegaraviy miqdoridan ortib ketishi kishilarning ortiqcha nurlanish olishiga olib keladi. Ortiqcha nurlanish esa sog'lom hujayralar atomlarini ionlashtirib, hujayralarni yemiradi, qon tarkibini o'zgartiradi, hayot uchun xavfli bo'lgan turli patologik jarayonlar (saraton, nasl kasalligi, bepushtlik, teri, qon kasalliklari) kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham atrof-muhit namunalarning tarkibidagi radionuklidlar miqdorini, o'zgarishini, migratsiyasini nazorat qilish, radionuklidlarning to'planishini kamaytirish chora-tadbirlarini izlash kishilarning radiatsion xavfsizligini ta'minlashda tabiiy fanlar oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Radioaktiv nurlanishning tirik organizmlarga ta'siri tabiiy fanlar o'qituvchilari uchun katta ahamiyatga ega, chunki bu mavzu ekologik xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, biologiya va kimyo fanlarini o'qitishda muhim o'rin tutadi. O'quvchilarda ushbu masala haqidagi to'g'ri tasavvurlarni shakllantirish, kelajakda ularni sog'lom va ongli ekologik qarorlar qabul qilishga undaydi. Radioaktiv nurlanishning biologik va ekologik ta'sirlarini o'rganish zaruriyati kun sayin oshib bormoqda, shuning uchun bu mavzu ilmiy tadqiqotlarda dolzarb ahamiyatga ega.

Radioaktiv nurlanishning tirik organizmlarga ta'siri haqida o'rganishlar ko'plab ilmiy maqolalar, monografiyalar va ekologik ta'lim metodikalarida keng yoritilgan. Bir qator tadqiqotchilar, bu masalani biologiya, kimyo va ekologiya fanlari nuqtai nazaridan o'rganishgan. Biroq, o'quvchilarni ilmiy va pedagogik jihatdan tayyorlashning metodik jihatlari hali to'liq o'rganilmagan. Tadqiqotchilar, shuningdek, o'quvchilarda ekologik ta'limni zamonaviy usullar bilan taqdim etishning samaradorligi haqida ma'lumotlar taqdim etgan.

O‘quvchilarda radioaktiv nurlanishning biologik ta’siri haqidagi to‘g‘ri tasavvurlarni shakllantirish uchun samarali metodik yondoshuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdan iboratdir. Bu maqsad yo‘lida biz umumta’lim maktab o‘quvchilarida ionlantiruvchi nurlarning tirik organizmlarga ta’sirini zamonaviy yondashuvlar asosida tushuntirish metodikasini takomillashtirish masalasini yoritamiz. Jumladan, zaryadlangan yengil zarralar, ya’ni elektron va pozitronlarning modda orqali o‘tishi barcha zaryadlangan zarralarning modda orqali o‘tishida keskin farq qiladi. Bunga asosiy sabab, elektron va pozitronlarning massalarining kichikligidir. Moddaga uchib kelayotgan elektronlarning massasi kichikligidan, modda ichidagi har to‘qnashishda impulslari katta o‘zgaradi. Buning oqibatida berilgan yo‘nalishga nisbatan yo‘nalishlari ancha o‘zgaradi. Bunda o‘quvchilar zaryadlangan yengil zarralar modda orqali o‘tganda energiyasini ionizatsiyaga yo‘qotish yoki radiatsion yo‘qotish effektlariga sarflashi, tormozli nurlar spektri, tormozli nurlar burchak taqsimoti, nurlanishga sarf bo‘ladigan energiya kabi dolzarb bilimlarni o‘zlashtiradilar.

O‘quvchilarda radioaktiv nurlanishning biologik ta’siri haqidagi to‘g‘ri tasavvurlarni shakllantirish uchun samarali metodik yondoshuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdan iboratdir. Bu maqsad yo‘lida biz umumta’lim maktab o‘quvchilarida ionlantiruvchi nurlarning tirik organizmlarga ta’sirini zamonaviy yondashuvlar asosida tushuntirish metodikasini takomillashtirish masalasini yoritamiz. Jumladan, zaryadlangan yengil zarralar, ya’ni elektron va pozitronlarning modda orqali o‘tishi barcha zaryadlangan zarralarning modda orqali o‘tishida keskin farq qiladi. Bunga asosiy sabab, elektron va pozitronlarning massalarining kichikligidir. Moddaga uchib kelayotgan elektronlarning massasi kichikligidan, modda ichidagi har to‘qnashishda impulslari katta o‘zgaradi. Buning oqibatida berilgan yo‘nalishga nisbatan yo‘nalishlari ancha o‘zgaradi. Bunda o‘quvchilar zaryadlangan yengil zarralar modda orqali o‘tganda energiyasini ionizatsiyaga yo‘qotish yoki radiatsion yo‘qotish effektlariga sarflashi, tormozli nurlar spektri, tormozli nurlar burchak taqsimoti, nurlanishga sarf bo‘ladigan energiya kabi dolzarb bilimlarni o‘zlashtiradilar.

Dunyo miqyosida aniq, tabiiy va texnika fanlarining o‘qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan hamda zamonaviy innovatsion kompyuter va pedagogik texnologiyalardan keng foydalangan holda yadroviy jarayonlarning har tomonlama tushunarli va mukammal mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqot ishlari keng miqyosda olib borilmoqda. Xususan, dunyo Internet tarmog‘i orqali keng foydalanilayotgan Crocodaile.com., Yenka.com., Physics kabi saytlarni va yadro fizikasi bo‘limi o‘qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan turli yondashuvlarni buning tasdig‘i sifatida keltirish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-son qarorida [10] belgilangan vazifalarni bajarilishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktabrdagi 816-son qarorida oliy ta’limning o‘quv adabiyotlariga qo‘yiladigan qo‘shimcha quyidagi:

mazmun ishonchli va salohiyat bilan yoritilishi, unda mualliflarning fan, texnika va texnologiyalarning so‘nggi yutuqlaridan foydalanganligi ko‘rinib turishi; tasviriy materiallardan maksimal foydalanish, dinamik jarayonlarni o‘rganishni osonlashtirish maqsadida elektron ta‘lim vositalarini (multimedia, animatsiya, virtual stendlar va h.k.) qo‘shimcha material sifatida ishlatish imkonini berishi;

o‘quv materiallarida o‘quvchilarni faol bo‘lish va tanqidiy fikrlashga undash va ularning fanga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiruvchi jihatlarining mavjud bo‘lishi;

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarining yaratilishi kabi talablar qo‘yilgan.

Shu talablardan kelib chiqib, izlanishlarimiz doirasida, yadro fizikasi mazmunini yoritishda o‘quvchilarni rivojlantirib o‘qitishga yo‘naltirilgan ionlashtiruvchi nurlarni tirik organizmlarga ta‘siri kabi keng mazmunli va yadro fizikasini to‘la qamrab oladigan bo‘limlarini, ularni har biri uchun o‘ziga mos o‘quv metodik, axborot dasturiy vositalar va kompyuter texnologiyalari yordamida ishlab chiqildi.

Jumladan, “Ionlashtiruvchi nurlarni tirik organizmlarga ta‘siri” bo‘limi uchun dunyo Internet tarmog‘i orqali keng foydalanilayotgan Kolorado universitetining PhET simulyatsiyalari, Amerika media tashkilotining Ted-ED onlayn konferensiya darslari materiallari, dunyo mamlakatlari olimlarining yadro fizikasiga tegishli mualliflik asosidagi ma‘ruzalari, taqdimotlari, elektron darsliklaridan foydalanildi va quyidagi 1-jadvalda mavzularning elektron manzillari keltirildi.

### 1-jadval

#### Maktab fizikasining “Ionlashtiruvchi nurlarning tirik organizmga ta‘siri” bo‘limi mavzularining elektron dasturlar asosida boyitilgan mavzulari

Mavjud kompyuter dasturlari asosida boyitilgan mavzular	Mavzularning elektron manzili
Ionlashtiruvchi nurlanishning moddalar bilan o‘zaro ta‘siri	<a href="https://www.youtube.com/watch?v=DLOeJbDjuHc">https://www.youtube.com/watch?v=DLOeJbDjuHc</a> <a href="https://www.youtube.com/watch?v=GztcJ5TUplY">https://www.youtube.com/watch?v=GztcJ5TUplY</a>
Ionlashtiruvchi nurlanishning moddalar bilan o‘zaro ta‘siri natijasida sodir bo‘ladigan yadroviy jarayonlar	<a href="https://www.youtube.com/watch?v=XYKtK5iAVWs">https://www.youtube.com/watch?v=XYKtK5iAVWs</a>
Vavilov-Cherenkov nurlanishlari	<a href="https://www.youtube.com/watch?v=dqJ5WIGjFIA">https://www.youtube.com/watch?v=dqJ5WIGjFIA</a>
Gamma nurlarning modda bilan o‘zaro ta‘siri	<a href="https://www.youtube.com/watch?v=qoKakO-ur5I">https://www.youtube.com/watch?v=qoKakO-ur5I</a> <a href="https://www.youtube.com/watch?v=r75HX1DW3Zo">https://www.youtube.com/watch?v=r75HX1DW3Zo</a>

Neytronlarning modda bilan o'zaro ta'siri	<a href="https://www.youtube.com/watch?v=Uta-ZirZF8">https://www.youtube.com/watch?v=Uta-ZirZF8</a>
Neytronlarni sekinlashtirish	<a href="https://www.youtube.com/watch?v=riv5Mct9wmw">https://www.youtube.com/watch?v=riv5Mct9wmw</a>
Nurlanishlarning biologik ta'siri va undan himoyalaniishning dolzarb muammolari	<a href="https://www.youtube.com/watch?v=m2baJRUPxf8">https://www.youtube.com/watch?v=m2baJRUPxf8</a> <a href="https://www.youtube.com/watch?v=R8-pl2Rc6E">https://www.youtube.com/watch?v=R8-pl2Rc6E</a>
Radiatsiyaning inson salomatligiga ta'siri	<a href="https://youtu.be/Pb3ZQYoDjp4?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC">https://youtu.be/Pb3ZQYoDjp4?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC</a>
Radiatsiya manbalari	<a href="https://youtu.be/GeMcu7R7P4A?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC">https://youtu.be/GeMcu7R7P4A?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC</a>
Radionuklidlarning yerda tarqalishi	<a href="https://youtu.be/8cAXzI06AMQ?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC">https://youtu.be/8cAXzI06AMQ?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC</a>
Yerning radiatsiya xalqalari	<a href="https://youtu.be/p9auFCjDOPa?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC">https://youtu.be/p9auFCjDOPa?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC</a>
Yer magnitosferasi va atmosferasining radiatsiyadan himoya xususiyatlari	<a href="https://youtu.be/LZ9ECEVsHi8?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC">https://youtu.be/LZ9ECEVsHi8?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC</a>
Atmosferaning radioaktiv ifloslanishi	<a href="https://youtu.be/wIxm6upjVnk?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC">https://youtu.be/wIxm6upjVnk?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC</a>
Texnogen manbalarning inson salomatligiga ta'siri	<a href="https://youtu.be/4IFSawtIR00?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC">https://youtu.be/4IFSawtIR00?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC</a>
Atom energetikasining jahon hamjamiyatdagi roli	<a href="https://youtu.be/8FvcpzFiniQ?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC">https://youtu.be/8FvcpzFiniQ?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC</a>
Radioaktiv chiqindilar	<a href="https://youtu.be/gim20o8OpsQ?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC">https://youtu.be/gim20o8OpsQ?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC</a>
Nurlanishlarning tibbiyotda qo'llanilishi	<a href="https://youtu.be/D9i-XBKhH7g?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC">https://youtu.be/D9i-XBKhH7g?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC</a>
Yutilgan va effektiv dozalar	<a href="https://youtu.be/MGdr7-z5EdY?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC">https://youtu.be/MGdr7-z5EdY?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC</a>
Effektiv dozani hisoblash	<a href="https://youtu.be/yk_TmmQkcq8?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC">https://youtu.be/yk_TmmQkcq8?list=PL82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC</a>

Radiatsiya o'lash asboblari	miqdorini <a href="https://youtu.be/gy8_ck0PBeM?list=P_L82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC">https://youtu.be/gy8_ck0PBeM?list=P_L82-7h1MN4nauLuD1FWqb8O13o55E99uC</a>
-----------------------------	---

Tadqiqot natijalari, radioaktiv nurlanishning biologik ta'siri haqida o'quvchilarning bilish darajasini oshirishda zamonaviy metodik yondoshuvlarning samaradorligini tasdiqladi. O'quvchilarga interaktiv o'qitish usullari, videolar va tasvirlar orqali real ekologik xavflarni tushuntirish ularning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshirgan. Eksperimental sinovlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning ekologik xatti-harakatlari va radioaktiv nurlanishni tushunishi sezilarli darajada yaxshilandi.

Xulosa: Radioaktiv nurlanishning biologik ta'siri haqida o'quvchilarda to'g'ri tasavvurlarni shakllantirish uchun zamonaviy pedagogik metodlarni ishlab chiqish va ularni o'qitish jarayoniga qo'llash zarur. Tadqiqot natijalari, o'quvchilarga ekologik xavfsizlik haqida chuqurroq tushuncha berish uchun didaktik yondoshuvlarning ahamiyatini ko'rsatdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O.O.Mamatkarimov, X.O.Q'ochqarov, D.A.Yusupov, A.U.Adashaliev. Radionuklidlar va ekologiya. NamDU ilmiy axborotnomasi. Namangan, 2020. 47-51 b.
2. Yusupov D.A. Kompyuter texnologiyalari yordamida yadro fizikasini o'qitish samaradorligini orttirish usullari // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2022. – №2. – B. 52-57.
3. Xudayqulov P.M., Yusupov D.A., Qo'chqorov X.O. Barqaror energetika ta'minotiga erishish usullari // Research and education. Year: 2023, Issue: 2, Volume: 4. – P. 138-145
4. Yusupov D.A. Theoretical and methodological issues of organizing and conducting courses in the physics of the atomic nuclear and elementary particles in higher education // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. Year: 2023, Issue: 2, Volume: 11. – P. 523-528
5. Qo'chqorov X.O., Yusupov D.A. Fundamental fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari va yechimlari : Academic Research in Educational Sciences. Volume 2. Uzbekistan 2021. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-448-455.p.448-455.
6. Yusupov D.A. Benefits of improved teaching methodology for teaching nuclear physics sections in universities based on innovative technologies // World Bulletin of Social Sciences (WBSS). Year: 2023, Issue: 2, Volume: 19 – P. 86-91
7. Yusupov D.A. Yadro fizikasi bo'limini o'qitish metodikasini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish // Fizika, matematika va informatika jurnali. – Toshkent, 2023. – №1. – B.75-84.
8. Abdugaffor Khurmamatov, Abdurahim Matkarimov, Alisher Auesbaev, Usnatdin Utegenov Results Of Experiments On Studying The Composition And Purification Of Technical Water Of Oil And Gas Processing Plant // Processes of Petrochemistry and Oil Refining 2023.- №4